

YOSHLARNI BANDLIK BILAN TA'MINLASH

*Erejepova Sayora Tileumuratovna**Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti**Tarix fakulteti Sotsiologiya yo'nalishi talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada yurtimizdagi bandlik markazlari haqida shu bilan birga shaxslarning ish bilan taminlanishi, ishsizlik haqida qisqasha ma'lumotga ega bo'lasiz.

Kalit sozlar: Bandlik, ish orni, shaxslar, kadrlar

Yurtimizda har yil sayin turli xil yonalishlarda talabalar, kasb-hunar bitruvchilari va shunga oqshash orta maxsus yoki oliy ta'limni bituvchi yoshlar mehnat bozoriga qadam tashlaydi. Barcha talaba yoshlarning asosiy maqsadi ish topish, xalqqa qanday foyda keltirish shu bilan birga o'zini band qilish singari maqsadlar bo'ladi. Hozirgi kunda bandlikni qisqartirish, talaba yoshlarni va uyishmagan yoshlarni ish bilan band qilish dolzarb mavzularning biridir. Aholining bandligi uni qayta tiklash uchun zarur shartni tashkil etadi, chunki u odamlarning turmush darajasi, jamiyatning kadrlarni tanlash, tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish xarajatlari, ularni ishga joylashtirish, ishsizlarni moddiy qo'llab-quvvatlashga bog'liq. Bandlik insonning ijtimoiy rivojlanishining eng muhim jihatlaridan biri bo'lib, uning mehnat ehtiyojlarini qondirish va mehnat bilan bog'liq.

Bandlikka ko'maklashish markazlari — O'zbekistonda vaqtincha ishidan va mehnat daromadidan mahrum bo'lib qolgan fuqarolarga ishga joylashishda, shuningdek qonun hujjatlarida nazarda tutilgan kafolatlarning ta'minlanishida ko'mak ko'rsatuvchi organ. 2007-yil 6-maydagi 616-sonli „Aholi bandligini oshirish hamda mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish organlari faoliyatini takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida“gi O'zR Prezidenti Qaroriga ko'ra tuman-shahar mehnat bo'limlari negizida tashkil etilgan bo'lib, ular zimmasiga: ish bilan band bo'lmagan aholi hisobini olib borish; ishsizlarni ishga joylashishlarida yordam ko'rsatish; aholi bandligini samarali shakllarini rivojlantirish; ishsiz fuqarolarni kasbga o'qitish, malakasini oshirish va egallagan kasb-hunarlariga mos ish bilan ta'minlash; ish beruvchilar tomonidan mehnat qonunchiligiga amal qilinishini nazorat qilish; aholi ijtimoiy himoyasida qatnashish kabi vazifalar yuklatilgan.¹

Bandlikka ko'maklashish markazi hozirda yoshlarni o'z mutaxassisligi bo'yicha ish bilan taminlash ularga komak berishda faol hisoblanadi. Samarali ish bilan

¹ <https://uz.wikipedia.org>

ta'minlanishning asosiy ma'nosi quyidagicha. Ijtimoiy jihatdan maqbul bo'lgan har qanday ish emas, balki faxat ikkita eng muhim talablarga javob berishi mumkin. Birinchidan, bandlik mehnatkashlarga munosib turmush sharoitini ta'minlaydigan daromad keltirishi kerak. Shuning uchun bandlik siyosatining daromad siyosati, inflyatsiyaga qarshi harakatlar va boshqalar bilan bevosita aloqasi. Ikkinchidan, ortiqcha ishchilarning mazmuni yoki ishsizlikdan qochish uchun rasmiy ish o'rinlarini yaratish davlat siyosati har bir insonning mehnatini iqtisodiy jihatdan maqbul, jamiyat uchun eng samarali bo'lishiga hissa qo'shishi kerak. Rivojlangan davrda ayrim ish orinlari qisqarishi yoki ayrim ish orinlari yangidan vijudga kelishi ham mumkin. Hozirgi zamon sanoat ishlab chiqarishining paydo bolishi bilan juda kop ananaviy hunarlar amali jihatda butunlay yoqoldi, qolganlari bolsa keng kolamli ishlab chiqarishning tarkibiy qismlariga aylandilar. Sanoat karxonalarida bugungi kunda elektrik, masalan, ma'lum turdagi mashinalarning bazi bir detallarini tuzatish va ular bilan ishlay olishi mumkin, qolgan ishlar va mashinalar bilan esa boshqa ishchilar shug'illanadilar.² Erkin tanlangan ish, o'z mehnat qobiliyatini (ishchi kuchini) tasarruf etish huquqi faqat egasiga, ya'ni xodimning o'ziga tegishli ekanligini ko'rsatadi. Ushbu tamoyil har bir xodimning ish bilan bandlik va ishsizlik o'rtasida tanlov qilish huquqini kafolatlaydi, bu esa har qanday ma'muriy ishni taqiqlaydi.

Shunday ekan hozirda rivojlanyabgan davrda ishsiz bo'lish yoki hunar egallamaslik bahona singari. Chunki yurtimizda va dunyo miqyosida ishlash uchun, hunar o'rganish, bilim olish ushun keng imkoniyatlar mavjud. Shu imkoniyatlardan o'z kelajagimiz uchun to'g'ri yo'nalitira bilishimiz darkor. Haqiqiy izlanshidan, bilim olishdan toxtamaydigan inson bir kun kelib o'z mehnatlarining mevasini koradi. Bu uchun faxat ilim olish va qattiyatlik talab qilinadi. Shunday ekan yurtimizdagi imkoniyatlardan to'g'ri foydalanib o'z maqsadimizga yetaylik.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://uz.wikipedia.org>
2. E.Giddens. Sotsiologiya. "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyodorlik kompaniyasi bosh tahriryati Toshkent-2002

² E. Giddens. Sotsiologiya. "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyodorlik kompaniyasi bosh tahriryati Toshkent-2002